

**M.Qosimova**

Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti

**A.Axmedov**

Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

---

## **O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FRAZEOLOGIZMLAR VA PAREMIYALAR**

Frazeologiya – bu “hozirgi holati va tarixiy rivojlanishida umumlashgan yaxlit ma'noga ega barqaror obrazli so'z birikmalarini o'rganadigan tilshunoslik sohasidir. Frazeologiyaning predmeti frazeologizmlar, frazeologik oborotlar va frazeologik birliklardir”<sup>1</sup>.

A.Hojiyev o'zining “Lingvistik terminlarning izohli lug'ati”da frazeologik birliklarga “tuzilishi jihatdan so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq protsessida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik, turg'un birikmalarining obrazli, ko'chma ma'noga ega turi”<sup>2</sup> degan ta'rif beradi.

Professor Sh. Rahmatullayev – ikki yoki undan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga muqobil, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatadigan lug'aviy birliklarni frazeologik obyekt deb e'tirof etadi<sup>3</sup>. B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabi tilshunoslar frazeologizmlarni keng tushunib, birikmali, turg'un, obrazli ifodalarni frazeologizmlar sifatida tadqiq etadilar<sup>4</sup>.

Frazeologizmlar “ikki yoki undan ko'p tarkibiy qismlardan tashkil topgan, ularning qiymatlari yig'indisi teng bo'lmagan barqaror lisoniy birliklar”dir. Masalan, rus tilidagi, “спустя рукава” iborasini so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi, balki “sifatsiz bajarilgan ish” ma'nosida qo'llanishini anglash lozim bo'ladi. Xususan, ingliz tilida “to look forward” frazeologik birligi “kutish” ma'nosida qo'llanadi<sup>5</sup>.

B.A.Larinning ta'kidlashiga ko'ra, “faqat so'z birikmalarigina frazeologiyaning predmetiga aylanadi. Biroq hamma so'z birikmasi ham ibora bo'lavermaydi. ... Fikr ifodalashni sintez

---

<sup>1</sup> Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. Фраzeология и паремология. – М.: Наука, 2013. – С. 32.

<sup>2</sup> Хожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – С. 124.

<sup>3</sup> Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент, 1970. – Б. 56.

<sup>4</sup> Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. док...дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. док...дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

<sup>5</sup> Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. Фраzeология и паремология. – М.: Наука, 2013. – С. 32.

qiluvchi eng sodda shakli sifatida, soʻz birikmalari sintaksis bilan bogʻliq boʻlgan nutq birliklaridir. Ammo soʻzlarning ichki tarkibiy qoʻshilishi semantik birlikka, semantik yaxlitlikka bogʻliq boʻlgan jumlar sintaksisning oʻrganish obyekti boʻlolmaydi – ular leksemaga juda yaqin, aralash leksemalar singari ularni ham mustaqil ravishda – frazeologiyada leksikologiya nuqtayi nazaridan yoki leksikografiyada koʻrib chiqish kerak. Soʻz birikmasi nutq birligining maxsus va oʻziga xos turi sifatida tilshunoslar tomonidan eʼtiborga olingan va taʼkidlangan. Keyinchalik, har qanday tilning lugʻat boyligi turlicha ekanligi, uning bir qismi jumlagi qarab tortilib, sintaksisga tegishli boʻlsa, boshqasi soʻzga yaqinlashishi aniqlandi – bular “ajralmas birikmalar” (A.A. Shaxmatov), “barqaror birikmalar” (S.I. Abakumov), yaʼni yaxlit nuqtayi nazarni ifoda etgan bir nechta soʻzlarning barqaror birligidir. Ular tarixan faqat etimologik jihatdan, yaʼni zamonaviy til tizimidan tashqarida dekompozitsiyalanadi. Jumalarning bu qismi sintaksisdan ajratilgan boʻlishi kerak, ammo uni leksikologiyaga oʻtkazib boʻlmaydi – aynan shu qism frazeologiyaning predmetini tashkil etadi”<sup>6</sup>.

Frazeologizmlar – tilshunoslikda barqaror qoʻllaniladigan klishe shakllardir. “Tilning ikkita asosiy funksiyasi – xabar berish va taʼsir koʻrsatishni amalga oshirish – lingvistik aloqador soʻzlar, iboralar va jumlar kabi erkin bogʻlanadigan til birliklarining oʻzaro taʼsiri tufayli roʻy beradi. Maʼlumki, har bir tilda ikkita asosiy yoʻnalishning birligi va kurashlari mavjud: biri bu tildan foydalanadiganlarning erkin ijodi, lingvistik shakllar va modellarning mahsuldorligiga, ikkinchisi – tayyor murakkab bogʻlangan shakllarni doimiy takrorlashga asoslangan. Birinchisi tilni rivojlantirish va yaratishga imkon beradi, ikkinchisi tildan foydalanuvchilarning saʼy-harakatlarini tejaydi, “jumlar xazinasi”ni, ushbu nutq jamoasi tomonidan berilgan tushuncha yoki fikrni ifoda qilish uchun eng maqbul deb tanlangan tayyor kompozitsion blok-klishe larni toʻplaydi. Birinchi tendensiya “... erkin shakllar va iboralar yordamida taʼsir qilish funksiyasini anglatadi, ikkinchisi esa xabar funksiyasiga qaratilgan boʻlib nutqda barqaror birliklar yordamida amalga oshiriladi”<sup>7</sup>.

Shu bilan birga, frazeologik birlik mikrotekst hisoblanadi, uni ushbu sifat jihatini hisobga olish kerak. “Koʻp zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga koʻra, frazeologik birliklarning asosiy xususiyati mazmun plani va ifoda plani oʻrtasidagi tafovutda koʻrinadi. Ushbu farq frazeologik birlikning oʻziga xosligini belgilaydi, uning maʼnosiga chuqurlik va moslashuvchanlik baxsh etadi. Bunday imkoniyatlar frazeologik birliklarning mohiyatiga – yopiq mikrokontekstga asoslanadi, unda nafaqat ifoda plani va mazmun plani oʻrtasidagi shartli aloqalar amalga oshiriladi, balki assotsiativ va semantik aloqalar ham boʻladi”<sup>8</sup>.

A.E. Mamatovning quyidagi fikrlari masalaning aniqlashishiga yordam beradi: “...frazeologiyani “keng” va “tor” maʼnoda tushunish notoʻgʻri, uni bitta maʼnoda tushunish kerak. Ular qanday til birliklari deb tasnif qilinishidan qatʼiy nazar, aforizmmi, maqol yoki matalmi, turgʻun soʻzlashuv formulalarimi, “qanotli soʻzlar”mi, xullas, agar ular frazeologizmning biz bergan taʼrifiga mos tushsa, undagi talablarni bajara olsa, yaʼni tuzilishi jihatidan soʻz birikmasiga yoki gapga teng boʻlgan, obrazli, umumlashgan maʼno anglatadigan,

<sup>6</sup> Ларин Б.А. Очерки по фразеологии [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.philology.ru/linguistics2/larin-77d.htm>

<sup>7</sup> Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – С. 241.

<sup>8</sup> Козырева Ю. В. Английская идиоматика на межъязыковом уровне // Журнал САХГУ, 2004, № 5 ([journal.sakhgu.ru/archive/2004-05-6](http://journal.sakhgu.ru/archive/2004-05-6)).

leksik elementlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, lug‘atlarda qayd etilgan har qanday turg‘un leksik-semantik birliklar frazeologik birliklar doirasiga kiritilishi shart”<sup>9</sup>.

Ayrim olimlar fikriga ko‘ra, frazeologiya paremiya kabi hodisalarni o‘z ichiga oladi. Paremiyalar deganda **maqollar, matallar**, shuningdek **masallar** bo‘lgan **barqaror frazeologik birliklar** tushuniladi. L.B.Kasyuba qayd etganidek, “zamonaviy mahalliy ensiklopedik lingvistik lug‘atlar, shuningdek, rus tilidagi terminologik, maxsus lug‘atlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, lingvistik bo‘lmagan maqol atamasi bugungi kunda paremiyadan ko‘ra ko‘proq qo‘llaniladi (xuddi shu ma’noda), bu til hodisasining ko‘p qirrali, munozarali, murakkabligini uning maqomi masalasi hal qilinmaganligini ko‘rsatadi”<sup>10</sup>.

“**Paremiya**” terminidan odatda “maqol” atamasi bilan sinonim sifatida foydalanish qabul qilingan bo‘lsa ham, u diniy ma’noga ham ega. Ruhoniy Andrey Chizjyenko “paremiya” atamasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Yunon tilidan tarjima qilingan so‘z “masal” degan ma’noni anglatadi. Bu ko‘pincha Muqaddas Kitobda, aziz avliyolarning xotirasiga bag‘ishlangan marosimlarda aytiladigan parcha. Odatda uchta paremiya qo‘llanadi, ammo yana ko‘p paremiyalar mavjud. Masalan, Buyuk Shanbaga bag‘ishlangan paremiyalar 15 ta. Masihning tug‘ilishi arafasida aytiladigan paremiya, Muqaddas cho‘qintirish (Rabbiyning suvga cho‘mishi) marosimida aytiladigan paremiya, Juma kuni bo‘lsa, unda bitta paremiya Havoriy va Muqaddas Xushxabar oldida o‘qiladigan paremiya”<sup>11</sup>.

O‘zbek tili frazemalari islom dini qoidalari asosida vujudga kelgan. O‘zbek tilidagi diniy iboralarning aksariyat qismi arab va fors tillari ta’sirida voqelantirilgan bo‘lsa, ingliz tili diniy uslubdagi frazemalar lotin tilidan kalkalashtirilganini alohida tilga olish kerak<sup>12</sup>.

Paremiyalarda xalq tarixining muayyan davri aks etadi. Masalan, otni qishloq xo‘jaligida yoki uyda ishlatishiga oid ma’lumotlar zamonaviy inson uchun odatiy, kundalik bo‘lmasa-da, hozirgi zamonda ham otni aynan shunday tushunishga doir paremiyalar ko‘p uchraydi. “Longman dictionary. Sixth edition”<sup>13</sup> lug‘ati ot so‘zi bilan bog‘liq quyidagi misollarni keltiradi:

*It is a good horse that never stumbles (Qoqilmaydigan ot yaxshi).*

*Set a beggar on horseback and he’ll ride to the devil (Gadoyga ot mindirsang, iblis oldiga jo‘naydi).*

---

<sup>9</sup> Маматов А.Э. Хозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – 274 б.

<sup>10</sup> Кацюба Л.Б. Определение паремии (лингвистический аспект дефиниции) // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия Лингвистика. – 2013. - № 1. – Т. 10. – С. 65.

<sup>11</sup> Чиженко А. Что такое паремии и как правильно их воспринимать // [Электронный ресурс] Режим доступа <https://pravoslavie.ru/98938.html> Дата доступа 21.01.2019

<sup>12</sup>Tursunova N.F. Turli tizimli tillardagi milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi frazeologizlar va ularning lingvokulturologik tahlili: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Andijon, 2011. – B. 114.

<sup>13</sup>28 Longman dictionary. Sixth edition. 2007. – P. 449.

That's a horse of another colour (Bu otning rangi boshqa).

To flog a dead horse (O'lik otni jilovlash).

To lock the stable-door after the horse is stolen (Otxona eshigini, otni o'g'irlashgach, berkitmoq).

To put (set) the cart before the horse (Aravani otdan oldin qo'yimoq).

You can take a horse to the water but you cannot make him drink (Otni suvga olib borish mumkin, ammo suv ichishga majburlab bo'lmaydi).

Zeal without knowledge is a runaway horse<sup>1429</sup> (Bilimsiz harakat qochoq otday gap).

While the grass grows the horse starves (Maysa o'sguncha, ot ochidan o'ladi).

Change horses in the midstream (while crossing a stream) (Daryo o'rtasida ot almashtirmoq).

Don't swap horses when crossing a stream (Kechuvda otlarni almashtirmaydilar).

A good horse cannot be of a bad colour (Yaxshi otning rangi xunuk bo'lmaydi).

A good horse should be seldom spurred (Yaxshi otni kamdan-kam niqtash kerak).

It is enough to make a horse laugh (amer.) (Otni kuldirishga yetarli).

*One man may steal a horse, while another may not look over a hedge (bir erkak ot opqochadi, boshqasi to'siqdan oshib qarolmaydi).*

*Run before one's horse to market (Otdan oldin bozorga yugurmoq)<sup>1530</sup>.*

O'zbek xalqi ham otni qadrlagani uchun u bilan bog'liq paremiyalar ham ko'proq ijobiy ma'no kasb etadi:

O'zbek tilida *"Ot aylanib qozig'ini topadi"* yoki *"Yaxshi otga bir qamchi"* iboralari qo'llaniladi.

O'zbek tilida qadimdan *"Kambag'alni otning ustida ham it qopadi"*, *"Otdan tushsa ham egardan tushmaydi"* kabi maqol va iboralar bor.

O'zbek tilida ot ko'chma ma'noda *"Yaxshi otga bir qamchi – yomon otga ming qamchi"*, degan maqol qo'llaniladi. Bunday maqollar ko'p uchraydi:

Otning o'limi – itning bayrami

Ot tepkisini ot ko'taradi.

Ot aylanib qozig'ini topadi.

---

<sup>1429</sup> <https://academic.ru/>

<sup>1530</sup> Longman dictionary. – Sixth edition. 2007. – P. 449.

Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.

Kambag‘alni ot ustida ham it qopadi<sup>1631</sup>.

Paremiyalarni o‘rganish jamiyatning har qanday obykti haqidagi stereotipik fikrlarni aniqroq tushunishga, shuningdek, jamiyat ongining tuzilishini o‘rganishga yordam beradi.

Shuningdek, milliy mentalitet, milliy qadriyatlargacha singib ketgan paremiyalarning aksariyati zoonimlar bilan bog‘langan. Jumladan, *it, qo‘y, echki*, hatto *eshshak* bilan bog‘liq maqollar ham mavjud:

*Itining fe‘li egasiga ma‘lum.*

*It vafo – xotin jafo*

*It hurar – karvon o‘tadi.*

*Semizlikni qo‘y ko‘taradi.*

*Echkining o‘lgisi kelsa, cho‘ponning tayog‘iga suykaladi.*

*Eshakning mehnati halol, go‘shiti harom.*

Jamiyat hayoti jamiyatning barcha a‘zolari tomonidan darhol va so‘zsiz qabul qilinadigan aksiomalar tizimi tomonidan tartibga solinadi. Har bir davrda ular maxsus matn bilan bog‘lanadi. Insoniyat jamiyati hayotining boshida, hali yozma nutq mavjud bo‘lmagan davrda, qabila hayoti folklorning umumiy misralari – maqol va matallar orqali boshqarilgan. Masalan, “*O‘zingni o‘ldir, ammo o‘rtog‘ingga yordam ber*”, “*Hovuzdagi baliqni osongina ushlay olmaysan*”, “*Ikkita qo‘yni ta‘qib qilsang – bittasini ham ushlay olmaysan*”<sup>17</sup>.

Til paremiyalari fondi tilshunoslik nuqtayi nazaridan asosan frazeologik birliklar, maqol va matallar bilan chegaralansa-da, aslida ularning qamrovi keng.

---

<sup>1631</sup> <https://ziyouz.uz/>

<sup>1732</sup> Волков А.А. Курс русской риторики. – М.: 2011. – С. 88.